



BO'LAJAK KIMYO O'QITUVCHILARINING TA'LIM JARAYONIDA 4+2  
AMALIYOTI VA MALAKAVIY AMLIYOTINING AHAMIYATI.

Sodiqov Behzod Baxriddin o'g'li.

Buxoro davlat pedagogika instituti (BuxDPI)

"Kimyo" kafedrasи o'qituvchisi

Ismadiyarova Madina Dilshod qizi

Buxoro davlat pedagogika instituti (BuxDPI)

Kimyo ta'lism yo'nalishi, 4-bosqich talabasi

**Аннотация:** Данная статья признана в новой концепции образования до 2030 года, принятой международными организациями и развитыми странами мира, как «Образование – главная движущая сила развития и важная деятельность, ведущая к достижению целей устойчивого развития» и применяется к образовательный процесс о развитии интерактивных технологий для эффективности инноваций и формирования педагогических компетенций, уделяя особое внимание совершенствованию педагогических механизмов создания среды творческого подхода к образованию. Подчеркнута важность роли профессиональной практики в образовательном процессе и в дальнейшей деятельности будущих педагогов.

**Abstract:** This article is recognized in the new concept of education until 2030 adopted by international organizations and developed countries in the world as "Education is the main driving force of development and an important activity leading to the goals of sustainable development", and the innovations applied to the educational process about the development of interactive technologies for the formation of effectiveness and pedagogical competences, paying special attention to the improvement of pedagogical mechanisms for creating an environment of a creative approach to education. The importance of the role of professional practice in the educational process and in the future activities of future pedagogues is highlighted.

**Ключевые слова:** Компетентностный, интерактивный, творческий, парадигмальный, Коммуникативный, интегрально-педагогический, практика 4+2, метод наблюдения, экспериментальный метод, сравнительно-аналитический метод, индуктивный метод, дедуктивный метод.

**Keywords:** Competence, interactive, creative, paradigm, Communicative, integral-pedagogical, 4+2 practice, observation method, experimental method, comparative-analytical method, inductive method, deductive method.

Hozirgi pedagogik kompetensiyalarni shakllantirish asosida bo'lajak kimyo o'qituvchilarning shaxsiy va kasbiy ijtimoiylashuvini ta'minlashning ijtimoiy-pedagogik mexanizmlarini takomillashtirishga ustuvor ahamiyat qaratilmoqda.



Ta'limning yangi paradigmalariga o'tish nafaqat talabalarining o'z-o'zini ijodiy rivojlantirishiga innovatsion yondashuvlarni, balki ta'lim jarayonini ta'minlashga imkon beruvchi metodologik asoslarni ham takomillashtirishni taqozo qilmoqda.

O'zbekistan Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar

strategiyasida "Uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlarni tayyorlash siyosatini davom ettirish" ustuvor vazifa sifatida belgilangan.

Mamlakatimiz olimlaridan N.N.Azizzxo'jaeva, U.Sh.Begimqulov, R.X.Jo'raev, U.I.Inoyatov, N.A.Muslimov, O.M.Musurmanova, E.A.Seytxalilov, N.M.Egamberdieva, F.R.Yuzlikaev, Z.E.Azimovalarning ilmiy izlanishlarida bo'lajak o'qituvchilarda kommunikativ kompetentlilikni shakllantirishning ijtimoiy-pedagogik, integral-pedagogik jihatlari, bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy-pedagogik tayyorlashning turli muammolari bo'yicha A.R.Xodjabaev, X.F.Rashidov, O'.Q.Tolipov, Sh.S.Sharipov, Z.K.Ismailova, Q.T.Olimov, M.B.Urazova, J.A.Hamidov, B.A.Nazarova, va boshqalar tomonidan bo'lajak o'qituvchilarida pedagogik kompetentlikni shakllantirish va rivojlantirishda pedagogik texnologiyalarini qo'llash, kasbiy-pedagogik tayyorlashsamaradorligini oshirish texnologiyalarini takomillashtirish masalalari bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari amalgalashirilgan.

#### 4+2 AMALIYOT:

Kreativ va integrativ yondashuv asosida bo'lajak kimyo o'qituvchilarining 4+2 amaliyoti davrida pedagogik ijodkorligini rivojlantirish texnologiyalarini takomillashtirishdan iborat.

Pedagogika oliy ta'lim muassasalari kimyo ta'lim yo'nalishlari talabalarining 4+2 amaliyoti davrida kreativ va integrativ yondashuv asosida pedagogik kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirish jarayoni.

Kreativ va integrativ yondashuv asosida bo'lajak kimyo o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik ijodkorligi, pedagogik kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirishning mazmuni, shakl, metod va vositalari. Bo'lajak kimyo o'qituvchilarining kasbiy kompetentli mutaxassis sifatida tayyorlash kimyo fanini o'qitish samaradorligini belgilovchi komponentalarining kreativ va integrativ yondashuv asosida takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish, tadqiqot mavzusiga oid ilmiy manbalarni tahlil etish asosida bo'lajak kimyo o'qituvchilarining pedagogik ijodkorligining mazmun-mohiyati va holatini, kreativ yondashuv asosida rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari va didaktik imkoniyatlarini aniqlash; bo'lajak kimyo o'qituvchilarining pedagogik kompetensiyalarini o'quv

jarayoniga axborotli, dalilli, muammoli, fanlararo integratsiyalashuv bosqichlarini kiritish asosida takomillashtirish;

Kuzatish metodi, so'rovnama, eksperimental metod, qiyosiy -tahlil metodi, induktiv va deduktiv metodlari.

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati bo'lajak kimyo o'qituvchilarining pedagogik kompetensiyalarini shakllantirishni kreativ va integrativ yondashuv asosida takomillashtirish, o'quv jarayonida qo'llanadigan faoliyatni tashkil etishga yo'naltirilgan



ta'limga resursining pedagogik-psixologik, texnik, didaktik talablari, tarkibiy qismlari, talabalarning mustaqil faoliyat olib borishi, kasbiy faoliyatda kreativ yondashish, zamonaviy kimyo fanlararo integratsiyalashuvi va raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki, ishlab chiqilgan «dars ishlanmalari» orqali ta'limga resursini yaratish, metodik qo'llanmalardan foydalanib fanga oid qiziqishi bilan birga o'z kasbiy faoliyatini samarali amalga oshirishga xizmat qiladi.

Bo'lajak kimyo o'qituvchilarini pedagogi faoliyatga tayyorgarligini o'quv mazmuni kreativ va integrativ yondashuv asosida bilim olishga yo'naltirilganlikka oid umumkasbiy ko'nikma va malakalarini aniqlashtirish asosida takomillashtirilgan;

Bo'lajak kimyo o'qituvchilarini pedagogik kompetensiyalarini o'quv jarayoniga axborotli, dalilli, muammoli, fanlararo integratsiyalashuv bosqichlarini kiritish asosida takomillashtirilgan;

Bo'lajak kimyo o'qituvchilarining motivatsion, kommunikativ, tashkiliy, gnostik, kreativ, refleksiv, tahliliy komponentalarining pedagogik imkoniyatlari qarorlar qabul qilishni rivojlantiruvchi treninglar o'tkazish, o'zini-o'zi baholash va o'z kasbiy faoliyatini loyixalashtirish ko'nikmalarini rivojlantirish asosida aniqlashtirilgan.



1-rasm

Bo'lajak kimyo o'qituvchilarda kreativ yondashuvni tashkil etish hamda ular tomonidan zamonaviy ta'limga me'yorlarini o'zlashtirishiga yordam beradigan qoidalar quyidagilardir:

1. Bo'lajak kimyo o'qituvchilarining 4+2 amaliyoti davrida kasbiy faolyatiga qaratilgan qobiliyatlarining rivojlanish darajasi nazorat va baholashga dahldor bo'lgan majburiy standartlarga kiritildi. Talabalarning individual maqsadga yo'naltirilganligi hamda o'rganilayotgan sohadagi ularning tegishli faoliyati umumiyligi hajmning 30 % dan ortig'ini tashkil etdi.



2. O'qituvchi tomonidan rejalshtiriladigan va nazorat qilinadigan faoliyatining majburiy turiga: talabalar tomonidan kasbiy faoliyatning ijodiy mahsuldorligini yaratishga shart-sharoit yaratadigan ijodkorlik qobilyatlarini ilmiy-tashkiliy turlari kiradi.

3. Bo'lajak kimyo o'qituvchilarining kreativ qobilyatlarini kasbiy faoliyati va unga qo'yiladigan maqbul talablar quyidagilar hisoblanadi:

a) fundamental ta'limi ob'ektlar talabalarning ijodiy faoliyatining ob'ekti bo'ladi;

b) talabalarning shaxsiy ijodining hajmi umumiyligi o'quv jarayonida 25-30 foizni tashkil etdi.

v) umumiyligi o'rta ta'limga jarayonidagi mahsuldor va reproduktiv faoliyat nisbati bo'lajak o'qituvchining rivojlanish darajasiga, bo'lajak o'qituvchi va matabning strategiyasi va ta'limga maqsadlariga qarab belgilanadi, biroq o'qituvchi faoliyatining hajmi uning individual dasturi bo'yicha ta'limga faoliyati hajmi kam bo'lmasligi kerak.

4. Bo'lajak kimyo o'qituvchilarining ichki ta'limga faoliyati va mahsuloti unga taqdim etilgan tashqi standartdan o'zib ketadi. Yosh o'qituvchilar erishgan natijalar jamoa bo'lib muhokama qilinadi, undan keyin tashqi madaniy-tarixiy o'xshashliklar bilan qiyoslanadi.

Yuqorida qoidalardan 4+2 amaliyot jarayoni alohida ahamiyat kasb etadi. Bunda: 2022/2023-o'quv yilidan boshlab kunduzgi ta'limga shaklidagi 2-4-bosqich talabalar uchun haftalik o'quv mashg'ulotlar "4+2", jumladan darslarning 4 kuni OTMda, 2 kuni umumiyligi o'rta ta'limga muassasalarida amaliyot o'tash tartibida olib boriladi [1; 3-70b].

#### **MALAKAVIY AMLIYOT:**

Malaka amaliyoti bakalavriat ta'limga yo'nalishlari o'quv (ishchi o'quv) rejalariga muvofiq oliy ta'limga muassasasi tomonidan ishlab chiqiladigan hamda qabul qiluvchi tashkilot bilan kelishib tasdiqlanadigan malaka amaliyoti dasturi asosida amalga oshiriladi.

***malaka amaliyoti*** — nazariy bilimlarni mustahkamlash, amaliy ko'nikma va malaka hosil qilishni nazarda tutuvchi ta'limga jarayonining bevosita ishlab chiqarish sharoitida davom ettiriladigan tarkibiy qismi;

***qabul qiluvchi tashkilot*** — talabalar malaka amaliyotini o'tashi uchun oliy ta'limga muassasasi bilan belgilangan tartibda shartnoma tuzgan, malaka amaliyotini o'tash uchun shart-sharoitlar mavjud bo'lgan tashkilot;

***oliy ta'limga muassasasidan malaka amaliyoti rahbari*** — o'quv yuklamasida talabalar malaka amaliyotiga rahbarlik qilish qayd etilgan oliy ta'limga muassasasining tegishli kafedrasi professor-o'qituvchisi;

***qabul qiluvchi tashkilotdan malaka amaliyoti rahbari*** — qabul qiluvchi tashkilot rahbarining buyrug'i bilan talabalarga malaka amaliyoti davomida ularni texnik xavfsizlik qoidalari bilan tanishtiruvchi, amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirishga ko'maklashuvchi, amaliyot davrida talaba egallagan ko'nikmalari baholash ma'suliyati yuklangan qabul qiluvchi tashkilot xodimi.

Amaliyot maqsadi tugallangan kasbiy topshiriqni yechadi, u fanlarni barcha turlari bo'yicha bilimlarni qo'llashni talab etadi.

#### **Amaliyot vazifalari:**

-tadqiqot mavzusi, muammo bo'yicha quyiladigan masalalar obzori va tahlilini berish;



-asosiy talablarni shakllantirish, muammolarni hal qilish jihatlarni ko'rib chiqish va ma'qul tomonlarini aniqlash;

-oldiga qo'yilgan masalaning (mavzu, muammo) holati va tadqiqot doirasini tahlil qilish, uning manbashunoslik tahlili va tarixshunoslik obzorini berish;

-bitiruv ishi mavzusining ahamiyati (dolzarbligi), maqsad va vazifalari, yangilik darajasini ko'rsatish;

-mavjud ma'lumotlardan foydalangan holda bitiruv ishi bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish;

-tadqiqot natijalari va xulosalarga dalillar keltirish;

-muammoning keyingi tahlillari bo'yicha tavsiyalar qilish;

-muammoni keyinchalik o'rganishda o'quv jarayoni, boshqa tadqiqot natijalarida foydalanish. [2; 3-27b].

**Fanning o'quv rejadagi boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi va uslubiy jixatdan uzviyiligi:**

"Malakaviy pedagogik amaliyot" fani bakalavriat yunalishida tahsil olayotgan tibbiy pedagogika fakulteti talabalar uchun ixtisoslik fani xisoblanadi. Shu tufayli talabalar, "Pedagogika" "Psixologiya", "Kasbiy psixologiya", "Falsafa", "Sotsiologiya", "Etika", "Estetika", "Odam anatomiyasi va fiziologiyasi" kabi fanlardan bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish talab etiladi.

Mazkur fan ayniksa, "Pedagogika", "Psixologiya", "Pedagogik psixologiya", "Kasbiy pedagogika", kabi fanlar bilan o'zaro hamkorliqda o'r ganiladi. Shuningdek, bu fan o'quv rejadagi umummetodologik mutaxassislik va tanlov fanlari xamda talabalarning ilmiy faoliyati bilan uzaro alokadorlikka o'r ganiladi.

**Fanning ilm-fan va ishlab chiqarishdagi o'rni:**

Mazkur fan talabalarning milliy mafkura tarbiyasi, o'kituvchilik kasbiga kuyilgan asosiy talablar, pedagogik burchi, majburiyatları, talabalar shaxeiga ko'yiladigan talablar va ularning ta'lim jarayonidagi burchlari, kasbiy ta'limining nazariy va amaliy asoslari xakidagi bilimlar bilan kurollantirish vazifasini bajaradi. Ushbu ishchi dastur 5111000- Kasb ta'limi (5510100 - davolash ishi) bakalavr yo'nalishlarida o'qitkladigan bo'lajak tibbiyotchi-pedagoglarning kelgusi faoliyat

jarayonlarini ya'ni, tibbiyot kollejlari, va oliy ta'lim muassasalarida pedagogik jarayonning ob'ektiv talablarini xisobga olgan xolda muammolarni qo'ya bilish,

ularni yechish, o'quvchilarni tarbiyalash va o'quv jaryonlariga xos bo'lgan qaramaqarshiliklarni hal eta olish va ijodiy izlanuvchanlikni ko'llagan holda yechimini topish - bularning hammasi birgalikda zamonaviy o'qituvchi va tarbiyachining kasb faoliyatidagi o'ziga xos tavsifni tashkil kiladi. Pedagogik jarayon davomida talabalar tibbiyotga oid bilimlarni, aqliy kobiliyatları hosil bo'lish jarayonlarida va o'qituvchi ijodiy taxlillarida yangi pedagogik holatning o'ziga xosligini namoyon qilishni talab kiladi[3; 11-13b].



## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. B.B.Sodiqov, D.M.Murodov. “Kimyo fanini o‘qitishda integrativ va kreativ yondashuv” //monografiya// Buxoro: “Sharq” nashriyoti, 2024.112 bet.
2. B.N.Rizayev H.M.Kobilova// MALAKA AMALIYOTINI TASHKIL ETISH VA O‘TKAZISH BO‘YICHA METODIK KO‘RSATMA//“KAMOLOT” nashriyoti// Buxoro – 2023. 48 bet
3. Уразимбетова, Б. (2023). Talabalarning uzlucksiz pedagogik amaliyotini tashkil etishning ayrim dolzarb masalalari. *Современные тенденции инновационного развития науки и образования в глобальном мире*, 1(4). <https://doi.org/10.47689/STARS.university-ppl173-182>